ARAB TILINING KLASSIK VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI

Raxmonov Kamoliddin Mamajon o‘g‘li
E-mail: kamoliddon035@gmail.com

Received: 02.11.2025
Revised: 03.11.2025
Accepted: 04.11.2025

Kalit so‘zlar:
Arab tili, Iboralar, Klassik tilshunoslik, Zamonaviy tilshunoslik, Lingvistik tahlil, Qur’oni Karim, Hadislar, Maqollar,Turg‘un birikmalar, At-ta’bir al-istilohiy

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi iboralarning klassik va zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlili amalga oshiriladi. Maqolada tilning fonetik, morfologik, sintaktik va semantik sathlari, shuningdek, so‘z va jumlalarning lug‘aviy va kontekstual ma’nolari o‘rganiladi. Arab tilidagi iboralarning qadimiy merosi Sibavayh, Xalil ibn Ahmad al-Farohidiyning ilk lug‘atlari, al-Mufaddal ad-Dabbiyning maqollar to‘plamlari va Ibn Manzurning “Lison al-Arab” asarlari bilan bog‘lanadi. Shu bilan birga, zamonaviy tilshunoslikdagi at-ta’bir al-istilohiy tushunchasi, uning xususiyatlari – ma’no yaxlitligi, turg‘unlik, obrazlilik va tarjima murakkabligi – ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Maqola arab tilidagi iboralarning Qur’oni Karim, hadis, she’riyat va xalq maqollari manbalaridagi ifodasi hamda ularning lingvistik va madaniy ahamiyati masalalarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari arab tilining serqirra va dinamik tabiati, shuningdek, iboralarni o‘rganish va lug‘atlar yaratish ishlarining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Til – fikrning libosi, madaniyat bulog‘i va jamiyatlar sivilizatsiyasining manbaidir. Har bir til o‘ziga xos tizimga ega bo‘lib, bu tizim fonetik, morfologik, sintaktik va semantik sathlarni o‘z ichiga oladi. Arab tili ham bundan mustasno emas. Tilshunoslar tilni elementlar majmuasidan iborat tizim deb bilishadi, bunda har bir unsur umumiy tizim doirasida o‘ziga xos vazifani bajaradi. Ushbu sathlar orasida semantika, ya’ni ma’no darajasi, boshqa barcha sathlarni birlashtirib, umumiy ma’noni hosil qiluvchi asosiy ip vazifasini o‘taydi. Tovushlar so‘zning tuzilishini, so‘zlar esa o‘zaro sintaktik aloqaga kirishib, jumlalarni tashkil etadi va bu jumlalar voqelik kontekstida muayyan ma’noni ifodalaydi. So‘z va jumlalarning lug‘aviy ma’nosidan tashqari, tilda chuqurroq ma’no qatlami mavjud bo‘lib, u iboralar yoki frazeologik birliklar (arab. تاريبعتلا ةيحلاطصلاا – at-ta’birat al-istilahiyya) orqali namoyon bo‘ladi. Iboralar – bu tarkibidagi so‘zlarning alohida olingandagi ma’nolari yig‘indisidan farq qiladigan, yaxlit, ko‘chma ma’no anglatuvchi turg‘un birikmalardir. Aynan shu xususiyat, ya’ni qismlar ma’nosi va umumiy ma’no o‘rtasidagi tafovut, arab tilidagi iboralarni o‘rganishda muayyan murakkabliklarni

keltirib chiqaradi. Ushbu tadqiqot arab tilidagi iboralar tushunchasini qadimgi arab tilshunoslik merosi va zamonaviy ilmiy qarashlar doirasida tahlil qilish, ushbu hodisaning manbalarini aniqlashga qaratilgan. Iboralar arab tilida qadimdan mavjud bo‘lib, arablar o‘z nutqlarida ularni tabiiy ravishda qo‘llaganlar. Qadimgi tilshunos olimlar o‘z asarlarida bu hodisaga e’tibor qaratgan bo‘lsalar-da, uni alohida ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganmaganlar. Masalan, buyuk tilshunos Sibavayh o‘zining mashhur “Al-Kitob” asarida tilda yagona so‘z kabi qo‘llanadigan turg‘un birikmalar (تارابع ةكوكسم – ibarat maskuka) mavjudligini ta’kidlagan. [Sibavayh, 1991, b. 403] Shuningdek, Xalil ibn Ahmad al-Farohidiyning “Al-Ayn”, Abu Amr ashShayboniyning “Al-Jim” kabi ilk lug‘atlarida, al-Mufaddal ad-Dabbiyning xalq orasidagi maqollar va iboralarga bag‘ishlangan “Al-Faxir” asarida hamda azZamaxshariyning “Asos al-Balag‘a” va Ibn Manzurning “Lison al-Arab” kabi monumental lug‘atlarida ko‘plab iboralarga misollar keltirilgan va ularning ma’nolari sharhlangan. Quyida bir nechta misollar keltirilgan:رحب نلاف (Fulanun bahr): so‘zma-so‘z tarjimasi “falonchi – dengiz”, ammo ko‘chma ma’nosi “u juda saxiy” yoki “u ilmi teran olim” deganidir. اوءاج بلع ةركب مهيبأ (Ja’u ’ala bakrati abihim): so‘zma-so‘z tarjimasi “ular otalarining g‘altagida keldilar”, ko‘chma ma’nosi esa “ularning hammasi, birortasi ham qolmay keldi” deganini anglatadi. تعضوٌ برحلا اهَرازوأ (vada’at al-harbu avzaraha): Qur’oni Karimda kelgan ushbu iboraning so‘zma-so‘z tarjimasi “urush o‘z yuklarini qo‘ydi”, ko‘chma ma’nosi esa “urush tugadi, nihoyasiga yetdi” demakdir. Qadimgi olimlar iboralarni alohida termin ostida tizimli o‘rganmaganliklarining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: Ularning asosiy e’tibori so‘zning yakka holdagi lug‘aviy ma’nosiga qaratilgan bo‘lib, so‘zlarning turg‘un birikma holatidagi ma’nolariga kamroq ahamiyat berilgan. Iboralar tushunchasi aniq bir termin bilan chegaralanmagan va ular ko‘pincha “maqollar” (لاثملأا – al-amsal), “hikmatli so‘zlar” (ملاكلا روثأملا – alkalam al-ma’sur) kabi kengroq tushunchalar doirasida ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy arab tilshunosligida iboralarni o‘rganishga qiziqish sezilarli darajada ortdi. Garchi dastlab “leksik qo‘shilmalar” (تامزلاتملا ةيظفللا – almutalazimat al-lafziyya), “turg‘un birikmalar” (تاكوكسملا – al-maskukat), “kontekstual iboralar” (ريباعتلا ةيقايسلا – at-ta’abir as-siyaqiyya) kabi bir nechta terminlar qo‘llanilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda at-ta’bir al-istilohiy atamasi keng ommalashgan. Ko‘plab tadqiqotchilarning fikricha, ushbu terminni ingliz tilidagi “idiom” tushunchasining tarjimasi sifatida ilk bor doktor Karim Zaki Husomiddin 1985yilda chop etilgan “At-Ta’bir al-Istilohiy” nomli asarida ilmiy muomalaga kiritgan. [Davood, 2014, b. 145] U iboraga shunday ta’rif beradi: “Muayyan tilga xos bo‘lgan, turg‘unlik xususiyatiga ega, bir yoki bir nechta so‘zdan iborat bo‘lib, o‘zining asl ma’nosidan voz kechib, til jamoasi kelishgan boshqa ma’noni ifodalovchi lingvistik qurilma”. [Husam ad-Din, 1985, b. 34] Zamonaviy olimlar iboralarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadilar: — Ma’no yaxlitligi: iboraning umumiy ma’nosi uning tarkibidagi so‘zlarning alohida ma’nolaridan kelib chiqmaydi. — Turg‘unlik: iboraning tarkibiy

qismlarini o‘zgartirish, tushirib qoldirish yoki ular o‘rnini almashtirish mumkin emas. — Obrazlilik va ko‘chma ma’no: iboralar ko‘pincha metaforik ma’noga ega — Tarjima murakkabligi: iboralarni boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi; tarjimada uning ma’nosi va uslubiy bo‘yog‘iga mos ekvivalent topish talab etiladi. Arab tilidagi iboralarni xilma-xil manbalardan topish mumkin. Ular asrlar davomida shakllanib, tilning leksik qatlamini boyitib kelgan. Ushbu manbalarning asosiylari quyidagilardir: 1. Qur’oni Karim: Allohning kalomi bo‘lgan Qur’on ko‘plab iboralarning asosiy manbai hisoblanadi. Misollar:شَدَّ ضَع نلاف (shadda ’aduda fulan) – “falonchining bilagini mahkamladi” (ma’nosi: uni qo‘llab-quvvatladi, yordam berdi).نبا ليب سلا (ibn as-sabil) – “yo‘l o‘g‘li” (ma’nosi: musofir, yo‘lovchi).ِهْجَ وِل الله (li vajhillah) – “Allohning yuzi uchun” (ma’nosi: beg‘araz, hech qanday manfaat ko‘zlamasdan). 2. Hadisi sharif: Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida ham ko‘plab iboralar uchraydi. U zotning nutqlari qisqa, ammo sermazmunligi bilan ajralib turgan. Misollar: وذ نيهجولا (zu al-vajhayn) – “ikki yuzli” (ma’nosi: munofiq, ikkiyuzlamachi).ص ل هَبْ ماقأ (aqoma sulbahu) – “belini tikladi” (ma’nosi: ochlikdan o‘lmaslik uchun ozgina yegulik yedi). ذخأ بلع هدي (axoza ’ala yadihi) – “uning qo‘lidan tutdi” (ma’nosi: uni yomon ishdan qaytardi). 3. She’riyat: Johiliyat davri va keyingi davrlar she’riyati iboralarning bitmastuganmas xazinasidir. Misollar: ل ا ابأ كل (la aba laka) – “otang bo‘lmasin” (bu ibora duoibad ma’nosida emas, balki taajjub, maqtov yoki tanbeh ma’nosida qo‘llanilgan). ديعاوم بوقرع (mava’idu urqub) – “Urqubning va’dalari” (Urqub ismli shaxsning yolg‘on va’dalariga ishora qilib, “bajarilmaydigan va’da” ma’nosida ishlatiladi). 4. Maqollar (لاثملأا): Xalq orasida keng tarqalgan va muayyan voqeaga ishora qiluvchi maqollar ham iboralarning muhim manbaidir. [Omar, 2008] Misollar: قبس فيسلا لذعلا (sabaqa as-sayfu al-’azal) – “qilich malomatdan o‘zib ketdi” (ma’nosi: endi kech, afsus-nadomatdan foyda yo‘q).ح نين خب يف رٌجَعَ (roja’a bixuffay Hunayn) – “Hunaynning maxsilari bilan qaytdi” (ma’nosi: quruq qo‘l bilan, umidsizlikka uchrab qaytdi). 5. Boshqa tillardan o‘zlashmalar: Hozirgi kunda harbiy, tibbiy, ommaviy axborot vositalari sohalaridan hamda boshqa tillardan tarjima qilish orqali yangi iboralar kirib kelmoqda. Masalan: ليسغ خملا (g’asil al-mux – miyani yuvish), ءوضلارضخلأا (ad-dav’ al-axdar – yashil chiroq, ya’ni ruxsat), ةفاحص ءارفص (sahafa safra’ – sariq matbuot). Xulosa qilib aytganda, arab tilidagi iboralar tushunchasi qadimgi tilshunoslik merosida o‘zining chuqur ildizlariga ega bo‘lib, garchi alohida termin ostida o‘rganilmagan bo‘lsa-da, olimlar tomonidan anglab yetilgan va asarlarida qayd etilgan. Zamonaviy tilshunoslikda esa bu hodisa, xususan, Karim Zaki Husomiddin kabi olimlar sa’y-harakatlari bilan aniq ilmiy tushuncha sifatida shakllantirildi, uning xususiyatlari va chegaralari belgilab berildi. Iboralarning Qur’oni Karim, hadis, she’riyat, maqollar kabi boy manbalarda ko‘plab topilishi esa arab tilining naqadar serqirra va dinamik til ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda iboralarni o‘rganish va ularning lug‘atlarini yaratish ishlari davom etmoqda, bu esa arab tilini o‘rganuvchilar va tadqiqotchilar uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Sibavayh, ‘Uthman ibn Qanbar. Al-Kitab. Tahqiq: ‘Abd al-Salam Harun. Qohira: Maktabat al-Khanji, 1991.
2. Muhammad Davood, Al-Mu’jam al-Mavsu’i lil-Ta’bir al-Istilahi fi al-Lughah al’Arabiyyah. Qohira: Dar Gharib, 2014.
3. Husam al-Din, Karim Zaki. At-Ta’bir al-Istilahi: Dirasa fi Ta’sil al-Mustalah va Mafhumuhu va Majalatuhu al-Dalaliyya va Anmatuhu al-Tarkibiyya. Qohira: Maktabat al-Anglo, 1985.
4. Ahmed Mukhtar Omar, Mu’jam al-Lughah al-’Arabiyyah al-Mu’asirah. Qohira: ’Alam al-Kutub, 2008.